

**Abdullayeva Gulyor Ganjaboy qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti  
[gulyorabdullayeva15@gmail.com](mailto:gulyorabdullayeva15@gmail.com), +998 99 509 35 15*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik yoshdagи o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishda o'qituvchining oldidagi vazifalari, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish hamda yozuvga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan orfografik elementlar haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** chiroyli yozuv, alifbe, pedagogik mahorat, yozuv qurolli, grafik malaka, to'g'ri yozuv

## FORMATION OF STUDENTS' WRITING SKILLS IN THE PROCESS OF TEACHING LITERACY

**Abstract:** This article contains thoughts and comments which are related to the teacher's tasks in teaching young students to write beautifully, the correct use of writing instruments, and the orthographic elements used in the process of teaching writing. **Key words:** beautiful writing, alphabet, pedagogical skill, writing tools, graphic skills, correct writing

Birinchi sinfda savod o'rgatish davrida o'quvchilar alifbe darsligi bilan parallel ravishda chiroyli yozuv ko'nikmalarini ham o'rganadilar. Bolada matabga qadam qo'ymasidan oldin chiroyli yozuv talablarini bilmasa ham, ularda ayrim malakalar shakllangan bo'ladi va ularga misol qilib ruchka ushlashni keltirishimiz mumkin. Matabga kelganlaridan so'ng, ularga dasturga muvofiq quyidagi malakalar o'rgatiladi:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamlash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish.
2. Yozuv daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha bosh va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish; bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.
3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.
4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o'qish bilan tekshirish.
5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.[1]

Savod o'rgatish davri davomida o'quvchilar yozishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi, bularni bartaraf etish o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga asoslanadi. O'quvchilar yozuv qurollaridan to'g'ri foydalansalar tez charchab qolmaydilar. Aynan partada to'g'ri o'tirish, yozuv qurollaridan qoidalarga asosan foydalanish, dafatrni parta

ustida 65° qiyalikda bo'lishi, ruchka bilan parta orasidagi qiyalik 50-55° bo'lishini o'qituvchi nazorat etadi.

Yozuvga o'rgatish jarayoni bu grafik malaka hisoblanadi. O'quvchi bu jarayonda o'z qo'l muskullarini ishlatish barobarida ongli holda tovushlarni harflarga aylantirib yoza oladi. Harflarni bosmasdan, ajratmagan holda bir maromda yozish – bu grafik malakaning asosiy talabidir.

O'quvchilar savod o'rgatish davrida husnixat daftariga hamda o'qituvchining namunaviy yozuvi asosida yozishadi. O'qituvchining namunaviy yozuvi - bolalarda to'g'ri yozuvni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o'rgatish ko'pincha taqlid qilish orqali amalgam oshadi. O'qituvchining bиринчи о'кув ўйлаб синф таҳтаси юки о'кувчидан дафтарига ўзганлари асл нусха сифатида ко'рилади, чунки о'кувчilar undan o'z daftariga ko'chirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchining husnixati to'g'ri va chiroyli bo'lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o'quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos holda bo'lishi kerak. Amaliyatning ko'satishicha, agar o'qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa (to'dirmasa), bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog'ozni bekorga sarf etishadi va so'zlarni keyingi qatorga to'g'ri ko'chirish yo'llani o'rgana olmaydilar, shubhali hollarda qator oxirigacha ko'chirmaydigan bo'lishadi.[2]

O'quvchilarda to'g'ri yozuvni shakllantirishda orfografiya muhim ahamiyat kasb etadi. "Orfografiya" yunoncha orfo - to'g'ri, "grafiya" - yozmoq so'zidan olingan.[3] Savod o'rgatish davrida o'quvchilarga kishilar va joylarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harflar bilan yozilishi, satrdan satrغا sig'may qolgan so'zlarni to'g'ri bo'g'inga ajratishni, so'zlarni bir-biridan ajratib yozish bosqichma bosqich o'rgatib boriladi.

O'qish bilan yozuvning birgalikda olib borilishi o'quvchilarning tezda savod chiqarishiga zamin hosil qiladi. O'quvchilaring yozuv qurollaridan noto'g'ri ishlatishi ularning sog'ligiga salbiy ta'siri mavjudligini hisobga olgan holda, ulardan to'g'ri va unumli foydalanishni talab etadi. O'quvchilarning imloviy bilimlarga ega bo'lishi - tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilishlarida muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova|, Safo Matchonov, Xolida G'ułomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi" Darslik Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009
2. X. G'ułomova, Sh. Yo'ldosheva, G. Mamatova, H. Boqiyeva, A. Sobirova "Husnixat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma Toshkent «IQTISOD- MOLIYA» nashriyoti 2007
3. S. Otamirzayeva, M. Yusupova "O'zbek tili" O'quv qo'llanma Toshkent 2004